

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti "Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi" kafedrasida katta o'qituvchisi S.U. Sabitxodjaeva va assistent X.X. Berdiyevlarning Zangiota Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumida o'tkazgan kasbga yo'naltirish seminari bayonnomasi

11.05.2026 yil

Qatnashdilar: Zangiota Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi talabalari, kafedra o'qituvchilari

Kun tartibi:

I. ABO tizim va rezus faktor, gematransfuzion asoratlar haqida tushuncha

Eritrotsitlarda A va B agglyutinogenlar mavjud. Qon plazmasida α va β agglyutininlar mavjud. Bitta odam qonida A agglyutinogen va α agglyutinini, B agglyutinogen va β agglyutinini bo'lmaydi, chunki ular agglyutinatsiyaga uchraydi va ko'plab asoratlarga olib keladi. ABO tizim va rezus omil bo'yicha mos bo'lmagan qon quyilganda eritrotsitlar agglyutinatsiyasi va gemolizi kuzatiladi. Hosil bo'lgan antigen-antitelo reaksiyasi natijasida yirik agglyutinatlar hosil bo'lib, buyrak koptokchalari, kichik qon tomirlarga tiqiladi va ko'plab asoratlar, hatto o'limga ham olib keladi. Bunda «antigen-antitelo» kompleksi hosil bo'lganda komplement tizimi faollashishi natijasida eritrotsitlar gemolizi vujudga keladi: komplement tizimi faollashishi membrana zararlovchi kompleksni hosil qilib, eritrotsit devorida tirqishlarni paydo qiladi, bu tirqishlar orqali xujayra ichiga ko'p suv kiradi, natijada eritrotsitlar shishadi va yoriladi. Klinik va laborator tekshiruvlarga asosan, bemorda gemotransfuziyadan oldin qarshi ko'rsatmalarni inkor etish lozim. Tana temperaturasini, AQBni o'lchash lozim. Anamnezda febril reaksiyalar bo'lsa, premedikatsiya bajariladi. Qon guruhini tekshirish standart zardoblar yordamida eritrotsitlarning guruh agglyutinogenlarini aniqlash va standart eritrotsitlar agglyutininlarini aniqlash bilan amalga oshiriladi.

Standart zardoblar yordamida qon guruhini aniqlash. 1. Maxsus kosachaga 2 seriyadagi 1, 2- va 3-guruhga mos standart zardoblardan 0,1 tomchidan tomiziladi. 2. 3. 4. Har biriga 0,01 tomchi aniqlanadigan qon tomiziladi. Shisha tayoqcha bilan aralashtiriladi. Kosachani 5 minut davomida chayqatiladi. So'ng natija ko'riladi. Eritrotsitlarda agglyutinini bo'lmaganda hech bir namunada agglyutinatsiya bo'lmaydi va bu 1-guruhga tegishli O (I) $\alpha\beta$; Agar agglyutinatsiya 1 va 3 guruh zardoblarida bo'lsa, 2 guruhda bo'lmasa, bu 2 guruh qonga tegishli A (II) β ; Agar agglyutinatsiya 1 va 2 guruhlarda bo'lsa, 3 guruhda bo'lmasa bu 3 guruh qonga tegishli B (III) α ; Agar agglyutinatsiya barcha namunada bo'lsa, tekshirilgan qon 4-guruxga tegishli AB (IV). Seminar mavzusi bo'yicha talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Zangiota Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumining direktori



G. Tursunova

Zangiota Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

F. Sh. Xalilova